



JISMONIY SHAXSLARGA KO'RSATILADIGAN CHAKANA XIZMATLAR BO'YICHA BANK TARIFLARI

2022-yil 23-maydan boshlab kuchga kiritilgan

№	XIZMAT TURI	TO'LOV MIQDORI
CHAKANA AMALIYOTLAR BO'YICHA KASSA XIZMATLARI		
1	Mijozdan kommunal to'lovlarini qabul qilishda <i>(kommunal korxonada va tashkilotlardan shartnomaga asosan foizda undiriladi)</i>	bepul
	shartnoma mavjud bo'lmagan taqdirda bank kassasi xizmatlari uchun	har bir to'lov uchun – 3 000 so'm
2	Mijozning kredit va unga hisoblangan foiz to'lovlari	Ipoteka-bank tizimida – bepul boshqa banklarga – 2 foiz
3	Bir martalik boshqa to'lovlar (soliq to'lovlaridan tashqari) <i>(bank filiali va tashkilot boshqa bank o'rtasida tuzilgan shartnoma mavjud hollarda shartnoma shartlariga asosan kamida 1 foiz o'rnatilishi lozim)</i>	Ipoteka-bank tizimida – bepul boshqa banklarga – 500 000 so'mgacha 5 000 so'm; 500 000 so'm va undan yuqorisiga – 10 000 so'm
4	Oliy ta'lim muassasalari kontrakt to'lovi	Ipoteka-bank tizimida – bepul boshqa banklarga – 1 foiz
5	Bank kartalarni mablag'lar bilan to'ldirish uchun naqd pullar qabul qilish	Ipoteka-bank tizimida – bepul boshqa banklarga – 1 foiz
6	Xalqaro pul o'tkazmalari (XPO) orqali chet elga pul mablag'larini o'tkazish	XPO' tizimidagi tariflarga asosan
7	Bank tomonidan o'rnatilgan to'lov terminali (bank/BXM kassasi) orqali milliy valyutadagi bank kartalaridan naqd pul yechish	1 foiz
8	Xalqaro to'lov terminalidan xorijiy valyutani naqdashtirish	Ipoteka-bank kartasidan – bepul boshqa bank kartasidan – 1,5 foiz
9	Ipoteka-bank xalqaro bank kartalaridan boshqa bankning bankomat, terminal va amaliyot shoxobchalari orqali naqd pul yechish	2 foiz
10	Ipoteka-bank xalqaro bank kartalaridan boshqa bankning to'lov terminallari orqali tovar va xizmatlar xaridi uchun	1 foiz
11	Omonat hisobvaraqlarni ochish, hisobvaraqlarga naqd/naqdsiz shaklda qayta rasmiylashtirish orqali pul mablag'larini kirim qilish, omonat shartnomasi yo'qotilganda qayta rasmiylashtirish	bepul
12	Omonat mablag'larini - bank kartasi, kredit, omonat hisobvaraqlariga naqd pulsiz shaklda o'tkazish	Ipoteka-bank tizimida – bepul boshqa banklariga – 2 foiz





№	XIZMAT TURI	TO'LOV MIQDORI
13	<p>Omonat hisobvaraqlariga kirim qilish, bular:</p> <p>ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, pensiya, nafaqa, homiylik va moddiy yordam pul mablag'lari, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya, stipendiya, aliment pul mablag'lari, Ipoteka-bank tizimida omonat hisobvaraqlari orasidagi o'tkazmalar, Ipoteka-bank aksiyalari uchun dividendlar, buzilgan turar va noturar joy uchun tovon pul mablag'lari, belgilangan maqsadda ishlatilmay omonat hisobvaraqlariga qaytarilgan mablag'lar, ortiqcha yoki noto'g'ri yechilgan pul mablag'lari, sud ijrochilaridan kelgan to'lovlar, ortiqcha to'langan daromad soliqlari qaytarilganda, Milliy gvardiya, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va ularga qarashli bo'lgan bo'linmalarning maxsus hisobvarag'laridan hamda turar-joy sotib olish uchun kelgan mablag'larni naqdsiz o'tkazish va tasarruf etish</p>	bepul
14	Uy-joy qurilishi bo'yicha korxonaning bankda ochilgan hisobvarag'iga kassadan to'lov qilinganda	Ipoteka-bank tizimiga – bepul
		boshqa banklarga – 0,5 foiz
15	Taqsimlanmagan foyda, dividend va boshqa hisobvaraqlardan omonat hisobvaraqlariga naqdsiz shaklda kelgan pul mablag'larini kirim qilish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni yopilishi natijasida omonat hisobvaraqlari orqali jismoniy shaxsning ulushini naqd pulda berish	Ipoteka-bank tizimida – 1 foiz
		boshqa banklarga – 2 foiz
16	Ipoteka-bank tomonidan ajratilgan chakana (ipoteka, mikroqarz) kreditlarni bank kartasi yoki omonat hisobvarag'iga kirim qilish, chakana (ipoteka, iste'mol) kreditlar uchun boshlang'ich badal sifatida omonat hisobvaraqlariga pul mablag'larni kirim qilish, sotuvchi hisobvarag'iga o'tkazish hamda naqdsiz shaklda kelib tushgan mablag'larni ortga qaytarish	bepul
17	Mijoz o'z to'lov xabarnomasini (kvitansiya) yo'qotganda arizasiga asosan to'lovlarni to'laganligi haqida ma'lumotnoma taqdim etish	bepul
18	Elchixonaga mijoz arizasiga asosan hisobvaraqlaridagi qoldiq va aylanmalar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish	50 000 so'm





№	XIZMAT TURI	TO'LOV MIQDORI
VALYUTA AYIRBOSHLASH XIZMATLARI		
19	Bir xorijiy davlatning naqd valyutasini boshqa davlatning naqd valyutasiga almashtirish (konversiya)	mijozdan olingan naqd xorijiy valyutani bankning sotib olish kursida olinib, unga almashtirib beriladigan valyutani bankning sotuv kursida beriladi (kross-kurs) <i>(amaldagi valyuta kurslari pasportiga asosan)</i>
20	Xaqiqiylikiga shubxa tug'ilgan naqd chet el valyutasini detektor yordamida xaqiqiylikini tekshirib berish	har bir banknota uchun – 1 000 so'm
21	<p>Shikastlanish belgilari mavjud bo'lgan muomalaga yaroqli banknotalarni almashtirib berish:</p> <ul style="list-style-type: none"> - banknota tasvirini (shaklini) aniqlash imkonini beradigan darajada siyqalangan va ifloslangan bo'lsa (siyqalanish banknotaning xaqiqiylikini aniqlashga xalaqit bermaydigan va asosiy belgilaridan birining 50 foizidan ortig'ini to'sib qo'ymagan holatlar bundan mustasno); - banknota enining (bo'yining) to'rtidan bir qismidan oshmagan yopishtirilgan yirtilarlarga ega bo'lsa; - yopishtirib qo'yilgan burchaklari yoki qismlari (1 sm.² dan oshmagan) bo'lsa hamda yirtib olingan burchaklari yoki qismlar aniq ushbu banknotaga tegishli bo'lsa; - mayda dog'lar, yozuvlar, shtamp izi bo'lganda (bunda yozuv yoki shtamp izi ikki donadan ortiq bo'lsa, banknota tugatilganligi, soxtaligi yoki namunaviylikini tasdiqlovchi shtamplar bundan mustasno) hamda ular banknotaning xaqiqiylikini aniqlashga xalaqit bermaydigan asosiy belgilaridan birining 50 foizidan ortig'ini to'sib qo'ymagan bo'lsa; - banknotada diametri 1 mm.dan oshmagan va ikkitadan ortiq teshiklar bo'lsa, bunda teshiklar banknotaning xaqiqiylikini aniqlashga xalaqit bermaydigan va asosiy belgilaridan birining 50 foizidan ortig'ini to'sib qo'ymagan bo'lishi kerak 	5 foiz





№	XIZMAT TURI	TO'LOV MIQDORI
22	<p>Shikastlanish belgilari mavjud bo'lgan muomalaga yaroqsiz banknotalarni inkassoga qabul qilish:</p> <ul style="list-style-type: none"> - bo'laklarga ajratilgan shu jumladan, yopishtirilgan bo'lsa; - dastlabki rangi o'zgargan yoki rangi o'chgan bo'lsa; - yongan yoki kuygan holatda bo'lsa; - qonuniy to'lov vositasi ekanligini ko'rsatuvchi asosiy belgilaridan birining 50 foizidan ortiq qismiga moy, bo'yoq yoki siyoh to'kilgan bo'lsa; - banknotada kimyoviy reaktivlar ta'siri bo'lsa; - muayyan darajada qasddan shikastlangan holda tasvir (surat, portret) o'zgartirilganda, nominali o'zgartirilgan, himoya ipchalari olib tashlangan, katta hajmdagi yozuvlar bo'lsa - banknotalar aniq bosma xatoga ega bo'lgan (suv belgisi yoki himoya ipchalarining yo'qligi yoki noto'g'ri joylashganligi), tasvirlari to'liq bosilmagan yoki surkalib ketgan bo'lsa; - banknota geometrik o'lchamining 3 mm.ga teng yoki undan ortiqqa o'zgargan bo'lsa; - banknota tasvirini (sur'atini, portretini, shaklini) aniqlash imkonini bermaydigan darajada sezilarli siyqalangan va ifloslangan bo'lsa; - o'zining qattqlik darajasini sezilarli darajada yo'qotib, yumshoq holga kelgan banknotalar. <p>Tegishli xorijiy davlatning emitent banki tomonidan e'lon qilingan sanadan keyin muomaladan chiqarilgan hamda banknota tugatilganligi, soxtaligi yoki namunaviyligini tasdiqlovchi shtamplar mavjud bo'lgan banknotalar to'lovga yaroqsiz deb e'tirof etiladi</p>	15 foiz
23	<p>Ayirboshlash shoxobchasida yirik chet el valyutasini aynan shu davlatning chet el valyutasiga maydalab berish yoki mayda chet el valyutasini o'sha davlatning chet el valyutasiga yiriklab berish amaliyotlarini amalga oshirish</p>	1 foiz
MILLIY VALYUTADAGI BANK KARTALARI XIZMATLARI		
24	<p>A) Bank mijozi, ish haqi loyihasi ishtirokchisi bo'lgan mijozlar uchun ish haqi, pensiya, nafaqa, aliment va stipendiya uchun bank kartasini emissiya qilish, bank tomonidan bank kartasi shikastlangan bo'lganda yangilash;</p> <p>B) Pensionerlarga emissiya qilingan bank kartasi texnik ishdan chiqqanda, yo'qolganda, amal qilish muddati o'tganda yangilash (yil davomida bir marta)</p>	bepul





№	XIZMAT TURI	TO'LOV MIQDORI
25	A) Jismoniy shaxsga yangi bank karta emissiya qilish hamda texnik ishdan chiqqanda/yo'qolganda yangilash; B) Amal qilish muddati o'tganda yangilash (amal qilish muddati 5 yil)	Uzcard – 50 000 so'm; Humo – 20 000 so'm
26	Ipoteka-bank tizimida emissiya qilingan bank kartasiga naqdsiz shaklda mablag'lar kirim qilish	bepul
XALQARO BANK KARTALARI XIZMATLARI		
27	Xalqaro bank kartasini ochish va bank kartasi ishdan chiqqanda, yo'qolganida/PIN konverti yo'qolganida, muddati tugaganda yangilash; <i>(xalqaro bank kartada 10 AQSH dollari depozit qoldig'i mavjud bo'lishi kerak bunda, bank karta hisobvarag'i yopilayotganda qoldiq mablag'lar mijozga qaytarib beriladi)</i>	Mastercard standart/Visa classic – 100 000 so'm; Mastercard gold/Visa gold – 150 000 so'm
28	Xalqaro bank kartasi bank tomonidan texnik nosoz holda chiqarilganda yangilash, SMS-xabarnoma, internet to'lovi, “3D-secure” xizmatlarini ulash, bank kartasi aylanmasi to'g'risida ma'lumotnomani taqdim etish	bepul
29	Ipoteka-bankda emissiya qilingan xalqaro bank kartasiga naqd va naqdsiz valyuta mablag'larini kirim qilish	bepul
30	Tranzaksiyani rad etish (Chargeback) (homi bankdan to'lov topshiriqnomasi berilganda mijozdan yechiladi) <i>(homi bankdan to'lov topshiriqnomasi berilganda mijozdan yechiladi)</i>	10 AQSH dollari
XORIJIY VALYUTADAGI AMALIYOTLAR BO'YICHA XIZMATLAR		
31	Hisobvaraqlarni ochish/yopish, barcha hisobvaraqlarga valyuta mablag'larini kirim qilish, hisobvaraqdan naqd kirim bo'lgan xorijiy valyutani berish, omonatga yoki xorijga jo'natish uchun naqd xorijiy valyutani qabul qilish, to'lovlarning shartlarini o'zgartirish, annulyatsiya hamda o'tkazmani qaytarish	bepul
32	Xorijiy bankka o'tkazmalar (MT 103): o'z hisobidan bo'lsa (“OUR”); ikki tomon o'rtasida (“SHA”); benifetsiar tomonidan (“BEN”)	“OUR” - 350 000 so'm “SHA” - 150 000 so'm “BEN” - 70 000 so'm
33	Hisobvaraqdan naqdsiz kirim qilingan xorijiy valyutani naqd shaklda berish	0,5 foiz





№	XIZMAT TURI	TO'LOV MIQDORI
34	Valyuta mablag'larini (shakllanish manbaidan qat'iy nazar) boshqa valyutaga ayirboshlash	mijoz hisobvarag'iga kelib tushgan naqdsiz xorijiy valyutani bankning sotib olish kursida olinib, unga almashtirib beriladigan valyutani bankning sotuv kursida beriladi (kross-kurs) <i>(amaldagi valyuta kurslari pasportiga asosan)</i>
ALTERNATIV KANALLAR BO'YICHA XIZMATLAR		
35	Mobil ilova orqali kredit va unga hisoblangan foiz to'lovlarini to'lash	Ipoteka-bank kreditlariga – bepul
		boshqa bank kreditlariga – 0,5 foiz
36	Mobil ilova orqali Ipoteka-bankning xalqaro bank kartalariga xorijiy valyuta xarid qilish <i>(bank sotuv kursi bo'yicha mijozdan olinadigan milliy valyutadagi mablag' miqdoriga nisbatan)</i>	bepul
37	Mobil ilova orqali tijorat banklarning bank kartalari o'rtasida o'zaro pul o'tkazmalari (P2P):	
	Elektron hamyondan elektron hamyonga	bepul
	Uzcard/Humo bank kartasidan elektron hamyonga	bepul
	Elektron hamyondan Uzcard/Humo bank kartasiga	bepul
	Uzcard/Humo bank kartasidan Uzcard/Humo bank kartalariga	0,5 foiz
38	Bankomat orqali barcha bank kartalaridan naqd pul yechish	1 foiz
39	Bankomat orqali kredit va unga hisoblangan foiz to'lovlarini to'lash	Ipoteka-bank kreditlariga – bepul
		boshqa bank kreditlariga – 1 foiz
40	Bankomat orqali bank kartalariga naqd pul kirim qilish	Ipoteka-bank kartalariga – bepul
		boshqa bank kartalariga – 1 foiz

